

QO'ZICHOQLAR SUKUNATIDA "YOVUZLIKNING PSIXOLOGIK" TAHLILI

University of Business and Science

Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti

Xorijiy filologiya (ingliz tili) yo'nalishi

1-bosqich talabasi **Ahmadjanova Mahliyo Bahromjon qizi**

oyparchamm05@gmail.com

Academic supervisor: **Aliyev Azamjon Ayubjon o'g'li**

University of Business and Science

Annotatsiya: Tomas Harris dunyo adabiyotida kriminalogiya va detektiv janrida hayratomuz g'oyalari bilan iz qoldirgan adib. Harrisning asarlari o'ziga xos jinoyat hamda psixologik janrlar bilan boyiganligi va jozibadorligi bilan kitobxonlarni jalb qila oladi. Adibning betakror asarlaridan bo'lmish "Qo'zichoqlar sukunati" asari olamshumul asar bo'lib ketma-ket eng yaxshi sovrinlarga sazovor bo'ldi.

Kalit so'zlar: Jinoyat, Buffalo Bill, detektiv, labirint, identifikatsiya, gender, FBI, seriali qotil, travma, triller.

"Bugungi o'zbek adabiyotida zamonaviy psixologik triller va hayajonli detektiv yo'nalishidagi asarlar nisbatan kam uchraydi. G'arb adabiyotida esa ushbu janrlar psixologik yondashuvlar, ruhiy iztirob va yovuzlik mohiyatini tahlil qilishda keng qo'llanilib, o'quvchini inson ruhiyatining eng nozik qatlamlariga olib kiradi. Xususan, Tomas Harrisning "Qo'zichoqlar sukunati" asari zamonaviy psixologik triller janrining yorqin namunasi bo'lib, unda yovuzlik nafaqat tashqi harakat sifatida, balki ichki ruhiy muvozanatsizlik, travmalar va shaxsiy iztiroblarning mahsuli sifatida tasvirlanadi".

Nega o'zbek adabiyotida bunday asar kam uchraydi..?

O'zbek adabiyotida psixologik triller va yovuzlikni tahlil qiluvchi zamonaviy asarlar kam uchrashining sabablari: o'tkir ijtimoiy qadriyatlar, madaniyat farqlari, o'quvchi

talablariga javob berish muammolari va ilmiy psixologik tahlilning rivojlanish darajasiga bevosiyati bog'liq. Biroq, "Qo'zichoqlar sukunati" kabi asarlarni tahlil qilish o'zbek adabiyotida yangi yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi hamda kitobxonlarga insonning ichki dunyosi, psixologik iztiroblar va yovuzlikning murakkab tabiatini tushunishlariga imkon yaratadi.

Men tahlil qilayotgan Tomas Harrisning "Qo'zichoqlar sukunati" asari XX asr adabiyotida o'ziga xos o'rin egallaydi. Ushbu asar nafaqat triller va kriminal janrda, balki inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ochib bergani sababli chuqur psixologik tahlilga munosibdir. Asar 1988-yil chop etilgan. Shu yilning o'zidayoq eng yaxshi roman toifasi bo'yicha "Brem Stoker" mukofotiga 1989-yilda esa "World Fantasy Award" mukofotiga sazovor bo'ldi. Asardagi voqealar rivoji o'quvchilarga yovuz jinoyatchilarning ichki olami qarashlari, o'ziga xos jihatlarini tanitadi. Seriali qotilliklar sodir etgan no'malum shaxs ortidan tushgan jasur va qat'iyatli kursant qiz Kleris Starling qo'lga kiritgan dalillar yechimi va mantiqiy xulosalari, kasbi tikuvchi bo'lgan qotil... Nega faqat ayollarni qurbon sifatida tanlayotganligini va bot-bot tushlariga kirib bezovta qilguvchi, bolalikdagi ruhiy olami og'riqlaridan meros – tun zulmatidagi qo'zichoqlarning zorlanib marashini barham topdirish maqsadida ishga kirishadi.

Qahramonimiz Kleris Starling – kuchli, beg'ubor ammo ichki ruhiy jarohatlarga ega ma'naviy poklik timsoli hisoblanib, u bolaligida otasidan ayrilgan, yetimxonada ulg'aygan, ko'plab zo'ravonliklar guvohi bo'lgan va buning natijasida bolalikdan adolat uchun kurash hissini tuyib kelgan mard ayol. Ayniqsa, Klerisning ichki kechinmalari va uning kuchli irodasi tufayli ayolning jamiyatdagi o'rniga yangi nigoh bilan qarashga undaydi.

Doktor Gannibal Lektor – o'ta aqlli, nihoyatda kuzatuvchan va eng yaxshi eshituvchi, kuchli sibliq psixiatr. U qotil, ammo murakkab axloqiy mezonlarga ega. Bu obraz ko'plab adabiyot jinoyatchilardan farq qiladi, buning sababi: insoniyatga xos va xos bo'lmagan unsurlar Lektorda mujassamlashgan. Lektor o'ta ketgan odamxo'r va jirkanch bo'lsada uning intellektual shaxsiyati, zukkolikda tengsizligi beixtiyor o'quvchini o'ziga rom qiladi. Asarda Lektorning faqat yovuz tomonlarini

emas uning insoniylik harakatlarini ham ko'rsatib berilgan. Bunga misol: Doktor Lektor Klerisni himoya qiladi va unga yordam beradi.

Yana bir qahramonimiz Buffalo Bill haqiqiy ismi (Jeyms Gumb) seriali qotil. U o'zini ayol deb his qiladigan, ammo bu identifikatsiyani shafqatsiz jinoyatlar orqali ifoda etishga uringan ruhiy beqaror shaxs.

Tomas Harris seriali qotil Buffalo Bill yashayotgan uyni hamda o'ljalarini qanday o'ldirayotganini shiddatli tarzda tasvirlaydi. Bill ning bir xona ichidan boshqa xonaga o'tsa bo'ladigan mantiqsiz va betartib qurilgan hamda uning ulkan yerto'lasi huddiki labirintga o'xshardi. Har bir xonadagi polning balandligi bir-biridan farq qilar ustiga-ustak bir juft pastroqda yoki yuqoriroqda joylashganlarini ham topsa bo'lar edi. Ostonalardan hatlab, eshiklar kesakisidan esa boshni egib o'tishga to'g'ri keladi. Bunday pollarda og'ir buyumlarni tortib chiqarish mushkul, dumalatib ketish esa tamomila ilojsiz ish edi. Qotilliklar ketma-ketligidan o'ziga nisbatan ishonchi oshgan Bill ishini ko'zdan pana yerto'lada emas, aksincha yuqoridagi xonalarda amalga oshirishni boshlagan edi. Bill boshqa qotillardan mutlaqo farq qiladi, bunga sabab: Uning psixikasining buzilishida edi. Bill o'zini ayol qilib ko'rsatishga intiladigan, va bu yo'lda boshqa ayollar terisini shilib olib, o'zini yangi "Shaxs" sifatida qayta yaratishga harakat qilayotgan qotil. Uning bu harakatlari nafaqat tashqi zo'ravonlik balki uning ichki iztiroblari va psixologik inqirozi bilan ham bog'liq. Buffalo Bill gender identifikatsiyasiva ruhiy muvozanatsizlik tufayli yovuzlikni amalga oshirgan murakkab shaxsdir.

Tomas Harrisning "Qo'zichoqlar sukunati" romanida voqealar yosh FBI (federal qidiruv byurosi tayyorlov akademiyasi) kursanti Kleris Starling atrofida kechadi. U maxsus topshiriq bilan qamoqxonada saqlanayotgan psixopat va qotil Gannibal Lektor bilan suhbatlashish uchun yuboriladi. Bundan ko'zlangan maqsad – seriali qotil Buffalo Bill ning ruhiy holatini tushunishga yordam beradigan ma'lumotlarni olish edi. Gannibal Lektor o'zining sirli va manipulyativ fe'l – atvori bilan, Klerisni suhbat davomida ruhiy jihatdan sinovdan o'tkazadi. Shu bilan birga Lektor unga seriali qotil haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Kleris bu yordam orqali oddiy kursant bo'lishiga qaramay doim olg'a boradi va bu izlanishlar

natijasida Buffalo Bill nig uyiga yolg'iz o'zi borib qoladi... bu orada qotilning uyidagi yerto'lada navbatdagi qurbon ham bo'ladi. Kleris qotilni yo'q qiladi qurbonni qutqarib oila a'zolari bag'riga qaytaradi. Kleris tergov jarayonida o'zining bolalikdagi og'riqli xotiralari, xususan, qo'zichoqlarning qichqirig'i bilan yuzma-yuz keladi. Asar yakunida Gannibal Lektor ikkita qo'riqchini daxshatli tarzda o'ldirib, qamoqdan qochishga muvaffaq bo'ladi ora-sirada Klerisga maktub yozib turadi. Ushbu asarni o'rganishim jarayonida inson mohiyati, yovuzlikning ichki ildizlari va shaxsiy inqirozlar qanday badiiy va psixologik usullar orqali tasvirlanganini chuqur anglash imkoniga ega bo'ldim. Asar nafaqat kitobxonlarni hayajonga soladi, balki o'z istaklari yo'lida kechirib bo'lmas qotilliklarga qo'l urilishi ham inson ruhiyatining qorong'u va sirli qatlamlari bilan yuzma-yuz qiladi.

Asarni o'qir ekanman yozuvchining ilmiy salohiyatiga, uning tafakkur va har bir qahramon uchun nozik psixologik yondashuvlariga qoyil qolmasligimning iloji yo'q edi. Yozuvchi har bir obrazni o'ziga xos tarzda sinchiklab yaratdi. Ayniqsa, erkaklar hukmron bo'lgan bir davrda Klerisdek ayolning matonati, jasurligi va professionalligini yuksak darajada tasvirlab shunday bir xavfli davrda nafaqat omon qolishi balki jinoyatlarning fosh bo'lishida ham uning jasorati o'rinli tarzda gavdalandirilgan. Detektiv adabiyot tanqidchisi John Dun ning asar haqida shunday deydi: "Bu so'ngi besh yilichida o'qigan eng kuchli va hayratga suluvchi triller roman bo'ldi" Gannibal Lektor ning obrazini adabiyotdagi eng esda qolarli jinoyatlardan biri deya alohida ta'riflagan. "Qo'zichoqlar sukunati" asari triller janrida o'chmas iz qoldirib kelmoqda. Asarning mohiyatini bir o'qishdayoq tushunarli va personajlar o'rtasidagi ziddiyatli suhbatlar, psixologik qarashlar sodda va teng anglab olish mumkinligidadir. Zamonaviy jamiyatda gender masalalari, o'zini anglash va jamiyat tomonidan qabul qilinmaslik muommolari ko'pchilikning boshidan o'tmoqda. Asardagi Buffalo Bill obrazi shu mavzuni keskin va og'riqli tarzda ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tomas Harris "Qo'zichoqlar sukunati"
2. wikipedia - The silence of the lambs novel

3. “Qo’zichoqlar sukunati” asari (247-bet)